

## Chet tillarni o'qitish uchun su'niy intellekt (chatbot) ning xususiyatlari

**Xo'janazarova Nazira**

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti

Sharq tillari, gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrası

Koreys tili o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarga ta'lim berishda AIning o'rni va tarixi haqida so'z yuritilgan. Globallashuv jarayonda undagi qulayliklarni ta'lim sohasida o'qitish va o'rganishda tad'biq etish. An'anaviy sinf mashg'ulotlaridagi eng katta muammolaridan biri bo'lgan – chegaralangan vaqt muammosini bartaraf etishda AI va chatbotning ustuvorligini ko'rishimiz mumkin.

**Kalit so'zlar;** suniy intellekt -AI (artificial intelligence), chat bot(chatbot), koreys tili ta'limi(Korean language education),

Chet tilida ta'limdagi chatbotlar Birinchi chatbot 1966 yilda MIT sun'iy intellekt laboratoriyasi xodimi Jozef Vayzenbur tomonidan ishlab chiqilgan ELIZA bo'ldi. ELIZA psixoterapiya maqsadida yaratilgan. ELIZA - bu soxta sun'iy intellektning dastlabki dasturi bo'lib, pattern matching usulida u avval aytilgan gaplarni biroz o'zgartirib, savol berib ko'rish, ma'lum bir so'z paydo bo'lganda oldindan o'rnatilgan javobni qaytarish usulida ishlagan. Bu eng dastlabki suxbatlashuvchi dasturi bo'lgan. O'sha paytda foydalanuvchilarning ko'p qismi ELIZA dasturida kompyuter bilan suxbatlashayotganlarini sezishmagan aksincha ELIZA bilan suhbatlashish inson bilan suxbatlashishga qaraganda qulay deya ta'kidlashgan (Block 1981). Ammo ELIZA dasturi suhbatdagi vaziyatni hisobga ola olmadi.<sup>1</sup>

Chet tillarini o'rganish uchun foydalaniladigan chatbotlar ularning rivojlanish maqsadiga bog'liq:

- 1) o'qitish va o'rganish maqsadidagi chatbot;
- 2) o'qitishda qulaylik yaratish uchun (hands on chatbot) chatbot.

“O'qitish va o'rganish (Purpose Chatbot)” - bu lug'at, grammatika, gapirish, tinglash, o'qish va yozish kabi ta'lim mazmunini o'rgatuvchi chatbot hisoblanib, o'qituvchi singari yetkazib beradi va bir paytda suniy intellektidan foydalangan xolda

<sup>1</sup> <https://web.njit.edu/~ronkowitz/eliza.html> orqali suxbat qurish mumkin.<sup>2</sup> yoki 3martagacha suxbat savol javob tarzidan so'ng uzilib qolgan. rasm <https://en.wikipedia.org/wiki/ELIZA> saytidan olingan.

o'rganuvchi bilan birgalikda aloqa(collaborative Relation)ni o'rnatib, o'rganuvchi chet tili xaqidagi qo'rquvdan xalos bo'lib, qulayroq va zavqliroq o'rgana olishlari uchun ko'maklashish maqsadida yaratilgan bot hisoblanadi. Shu bilan birga "o'qitishda qulaylik yaratish uchun " yaratilgan chatbot o'rganuvchilarning ijodkorligini oshirish yoki o'rganishga qiziqishlarini oshirish uchun mo'ljallangan bo'lib, ona tilidan foydalangan xolda, yozish strategiyasi, yozishdan oldin aqliy hujum va yozish maqsadlarini belgilash kabi jarayonlarni qamrab olib, o'z-o'zini baholashda va hokazolarda yordam beradi yoki o'quvchilar bilan kundalik suhbatlar orqali chet tillarini uzluksiz o'rganishlari uchun qiziqtirishga yordam beradi.

Darhaqiqat, yuqoridagi funktsiyalar hozirgacha ishlab chiqilgan boshqa vositalarga, ya'ni chet tillarini o'rganishda onlayn kurslar yoki smartfon ilovalari sifatida amalga oshirilishi mumkin dasturdir. Lekin birgina kompyuter dasturi hisoblangan chatbotning chet tilini o'qitishda e'tiborni jalb qilishining sababi shundaki boshqa texnologiyalardan farqli o'laroq, bu shaxslashtirilgan "shaxsiy mavjudot" bo'lib, bu dasturning mohiyati'muloqot' tarzida yaratilgan.

Ya'ni chatbot bir vaqtning o'zida odamlar qilishi mumkin bo'lmagan imkoniyatlarni jamlagan'qurilma', xamda odamlar qila oladigan suxbat jarayonini qamrab olgan "muloqot" funktsiyalarini bajara olib, faqat texnikaga tayangan onlayn ta'lim cheklovlariga muqobil taklifni taqdim eta olib, bitta o'qituvchi sinfda dars olib borayotganda paydo bo'ladigan cheklovlarni bartaraf etishda bir vaqtning o'zida yordamchi vazifasini xam bajara oladi.

## (1) Shaxsiylashtirilgan mavjudot sifatidagi xususiyatlar

Chatbot - bu odamlar kabi muloqot qilishni maqsad qilgan qurilma (yoki dastur) bo'lib, inson kabi muloqot qila oladigan dastur bo'lib, inson bilan muomala qilayotgandek tasavvur uyg'otadi. Shuni aytish joizki, chatbotlar "shaxslashtirilgan mavjudot" sifatida chet tilini o'qitishda u boshqa qurilmalar qila olmaydigan vazifalarni bajarishga imkon beradi.

Birinchidan, odamga o'xshash suhbat orqali odamlar bilan muloqot qilish mumkin. O'rganuvchi turli mavzularda o'z darajalariga mos tildan (lug'at, grammatika, iboralar va boshqalar) foydalanibgina qolmay, chatbot bilan ovozni aniqlash va ovoz yaratish funktsiyalari orqali o'rganuvchining nutqiga mos ovozli javob berish ham mumkin suhbatlashi ham mumkin.<sup>2</sup>

Ikkinchidan - shaxslashtirishdir. Ko'pgina chatbot dizaynerlari o'zlarining chatbotlariga induvidual shaxs sifatida ism yaratib, oldindan belgilangan xarakter yaratishadi. Hamda muloqot qilish uchun unga ohang, intonatsiya va ovozni o'rnatib,

<sup>2</sup> Chatbot va foydalanuvchi o'rtasidagi suhbat "yopiq suhbat" va "ochiq suhbat" ga bo'linadi va yopiq suhbat asosan bloklanadi. Bu tugma yoki tanlov sifatida amalga oshiriladigan oldindan rejalashtirilgan suhbat stsenariysi bo'yicha suhbatni o'tkazishni anglatadi. Ochiq suhbat esa chatbot insonr bilan tabiiy ravishda suhbatlashgandek, inson nutqining "maqsadini" tushunishga xarakat qilib, insonning "niyat"i ga mos keladigan javobni berishga xarakat qiladi.

ma'lum bir odam bilan muloqot qilayotgandek xis qildiradigan dastur yaratishgan. Bunday dastur orqali o'rganuvchilar o'zlarini kompyuter bilan emas balki qandaydir inson o'qituvchi yoki o'rtog'i bilan suxbat qilayotgandek xis qilishadi.

Uchunchidan, boshqa qurilmalardan farqli o'laroq, chatbotlar his-tuyg'ularni his qilishlari oki ifoda etishlari mumkin. Chatbot til orqali xursandchilik, g'azab, qayg'u, uyat va hayrat kabi his-tuyg'ularni ifodalay olib, emotikon yoki rasm, surat va boshqalar orqali yanada turli xissiyotlarni ifodalay xam oladi. Faqat bugina emas, xus-tuyg'ularni ifoda etuvchi til muloqoti orqali o'rganuvchining xissiyotlarini o'ragnib, o'rganuvchining xolatiga mos javob qaytara oladi. Bu orqali insonlar qurilma bilan emas, balki xis-tuyg'ularini o'zaro bo'lisha oladigan inson bilan muloqot qilish kabi yaqinlik xissini beradi.

## (2) Qurilma sifatidagi xususiyatlari

Chet tillarini o'rganishda foydali bo'lgan "chatbotlarning odamlar emas, balki qurilmalar sifatidagi xususiyatlari"ni umumlashtirilsa quyidagilarga bo'linadi:

Birinchidan, yaqinlashish oson. Chatbotlar vaqt va joydan qat'iy nazar o'quvchilarga yordam berishi mumkin.

Bu kompyuterlar, smartfonlar va boshqalar orqali matn yoki ovoz shaklida yakkama-yakka darslarga o'xshash tajribani taqdim etishi mumkin. Chatbotlar orqali o'rganuvchi istagan vaqtda, istagan joyda kompyuter, smartfon orqali yozuv yoki ovozli ko'rinishda birga bir dars olish xamda tajriba to'plash mumkin. Chatbot orqali o'rganuvchi qachon, qayerda bo'lsa xam o'rganibgina qolmay, o'zi xoxlagancha darxol feedback tarzida savol javob qilish xam mumkin. Ikkinchidan, o'rganuvchi xohlagancha takrorlashi mumkin.

Ko'pgina xorijiy tillarni o'qitishda takrorlash muxim ahamiyat kasb etib, bu ko'plab o'qitish metodikasida xanuzgacha davom etib kelmoqda. Hozirgacha eshitib, tushunish o'qitish metodikasi <sup>3</sup> (auditory punctuation) ko'plab chet tili ta'limida qo'llaniladi, maslahatchi sifatida o'rgatuvchining roliga urg'u beradigan guruhlab o'qitish metodikasi va boshqa metodlarda xam ayniqsa takrorlab o'rganishga urg'u berilib, o'rganuvchi o'zi qoniqquncha so'z, gap, suxbat va boshqalarni takrorlash orqali eshitib o'rganishning muximligiga urg'u beriladi. Ammo sinf darsida o'quvchilar ko'p bo'lgan xolatda har bir o'quvchi aloxidadan takrorlash yoki o'rganishini tashkil etish qiyin masala. Lekin, chatbot orqali o'rganuvchi o'zi xohlagancha takrorlab o'rganishi mumkin.

Uchinchidan, har bir shaxs uchun tabaqalashtirilgan o'qitish va o'rganish mumkin. Chatbotlar oldindan ishlab chiqilgan dasturga muvofiq suxbatdoshining ya'ni o'rganuvchining darajasiga moslab, tushuna oladigan qaydlarni xamda feedbackni berib,

<sup>3</sup> Til namunalarini qayta-qayta mashq qilish orqali yangi tilni o'zlashtiradigan o'qitish usuli. Bunda o'qish nutqi uchun grammatika va lug'atni mustahkamlash vositasi sifatida ishlatiladi.

suxbat orqali o'rganishga motivatsiyani berishga sababchi bo'ladi. O'g'uvchi chatbot bilan suxbat qilishdan oldin, o'ziga mos til darajasini, yo'nalishni, maqsad kabilarni belgilagandan so'ng suxbatni boshlashi mumkin.

Ayniqsa, bitta o'qituvchi bir nechta o'quvchilar bilan shug'ullanadigan an'anaviy sinf mashg'ulotida o'qituvchiga to'liq 1:1 shaklda fikr-mulohazalarini taqdim etish qiyin bo'lganda cheklangan vaqt muammolarini qilishda yordam bera oladi. O'quvchilar darsdan tashqarida o'sha kuni o'rgangan mavzular bilan bog'liq suhbatlarni vaqt va makon cheklovlarisiz qayta-qayta mashq qilish orqali o'zlashtirishlari mumkin. Chatbotlar orqali o'quvchi o'z darajasiga mos individual fikr-mulohazalarni olishi mumkin.<sup>4</sup> Ayniqsa, koreys tilisi ona tili bo'lgan koreys bilan uchrashish imkoni kam bo'lgan KFL(korean foreign language) o'quvchilariga AI chatbot orqali koreys tilida yozma qayd etish yoki suxbatlashish imkoniyatlarini oshirishi mumkin.

To'rtinchidan, raqamli audio-vizual materiallarga kirishning qulayligi. Chatbotlar kompyuterlar va smartfon orqali ishlatilganligi sababli juda ko'p raqamli audio-vizual materiallarni kerak bo'lganda darhol o'quvchiga taqdim etilishi mumkin. Bundan tashqari, ta'lim maqsadlarida yaratilgan ma'lumotlarnigina emas, sinf mashg'ulotlaridan tashqari kundalik xayotda qo'llaniladigan ma'lumotlardan osongina chatbot orqali foydalanish mumkin. O'quvchilar o'rtasidagi suhbatda chatbotdan foydalanish mumkin. Misol uchun, restoran to'g'risida suxbatni mashq qilinsa chatbot yaqin atrofdagi haqiqiy restoranlarning nomlarini, oziq-ovqat ma'lumotlarini yoki fotosuratlarini, restoran egalari va mijozlar bilan suxbatni aks ettiruvchi YouTube materiallarini real vaqtda bog'lab taqdim etish mumkin.

Beshinchidan - haqiqiy hayot vazifalari bilan bog'lanish qulayligi. So'nggi kunlarda online xayot uchun yangi texnologiyalarning tez tarqalishi tufayli ko'plab oflayn hayot onlayn bilan parallel bo'lib bormoqda. O'quvchilar chatbot orqali transportni qidirishlari yoki onlayn xarid, ovqatni yetkazib berish xizmati kabilardan o'quv dasturiga bog'lash orqali tajribani boshdan kechirishlari mumkin.

Oltinchidan, turli ilg'or texnologiyalar bilan birlashish imkoniyati. Chatbot hozirda rivojlanayotgan kengaytirilgan reallik-IT augmented reality (AR), virtual reallik-virtual reality, suniy intellekt-artificial Intelligence bilan bog'liq texnologiyalar bilan birlashishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu texnologiyalar rivojlanishi bilan chatbotlar xamvturli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Suxbatlashish mumkin bo'lgan inson qiyofasidagi chatbotning yana bir turi mavjud bo'lib, insondek suhbat qila oladigan robot shaklida yoki chatbotning bir ko'rinishida uchratish mumkin. Bundan tashqari, ona tilni qayta ishlash

<sup>4</sup> Kerly, Hall va Bull (2006) ga ko'ra, Kerly, Hall, & Bull o'quvchilar ona tili orqali ma'nolarni muxokama qila olishlari uchun, chatbotni ijobiy munosabatda qabul qilishi, chatbotdan foydalanish orqali sinf mashg'ulotiga yordamchi vosita sifatida foydalanishi, vazifani tekshirish, noto'g'ri tushunsa yoki tushunmagan xolatda tushuntirish cha xaqida batafsil tushuntirish funksiyasidan eng ko'p foydalanganligi aniqlandi.

texnologiyasi, ovozni aniqlash va yaratish chatbotlari ham texnologiya rivojlanishi bilan rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, chatbotlarning muhim xususiyatlaridan biri bu chatbot va o'quvchi o'rtasidagi yoki chatbot-o'quvchi- o'quvchi o'rtasidagi barcha suhbatlarni yozib olish va saqlash mumkin. O'quvchining barcha natijalari til o'rganish va tadqiqot uchun ham qimmatli ma'lumotdir. Chatbotlar odamlar bilan barcha suhbatlarni yozib olish mumkin va chatbot bilan barcha suhbatlar tarixi jurnallar(logs) deb ataladi. Chatbotdu bunday yozib olingan jurnallarning barchasini o'qituvchi tekshirib chiqib, o'quvchi tushunmagan malumotlarni qayta tushuntirib berishi yoki xatolarini to'g'irlab berishi mumkin. O'quvchilar chatbot bilan suhbat davomida qo'llagan barcha til shakllariga yanada ko'proq e'tibor qaratishi mumkin xamda o'qituvchi o'quvchilar tomonidan shakllantirilgan ma'lumotlar orqali o'quvchidagi tez-tez kuzatiladigan xato turlari va shakllarini aniqlashi mumkin.

Bundan tashqari, chatbot shunga o'xshash so'rovlarni topish uchun o'quvchining so'rovlarni tahlil qilib, bir xil so'rovlarni topish uchun, qurilma sifatida o'rganilsada, xozirda texnikadan foydalangan chatbotlar shinani o'rganish bu maqsadda ishlatilishi mumkin va so'nggi texnologiyalarni qo'llaydigan chatbotlar matnni topish va qurilmani o'rganishni bir paytda foydalanib, ma'lumotlarni kengaytirib, o'quvchining nutqini nima xaida ekanligini tushunib, yanada yaxshiroq fikr- muloxaza bildiradi.

## *FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI*

1. Baqoyev, Navrozzon (2023). O'ZBEK TILIDAGI "QO'L" SO'ZI VA U QATNASHGAN IBORALAR SEMANTIKASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (2), 414-417.
2. Bakoev, N., & Abdumutalova, M. (2023). YAPON TILIDAGI KANSAI SHEVASI VA O 'ZIGA XOSLIGI. *Interpretation and researches*, 1(17).
3. Bakoev, N., & Yuldasheva, S. (2023). YAPONIYA TA'LIM TIZIMI. *Interpretation and researches*, 1(17).
4. Bakoev, N., & Ravshanov, S. (2023). YAPON TILIDAGI IYEROGLIQLAR. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(16), 84-87.
5. Bakoev, N., & Sheraliyeva, F. (2023). YAPONIYA TURIZM SOHASI VA RIVOJLANISHI. *Interpretation and researches*, 1(18).



6. Bakoev , N. (2024). ONE OF MODERN LANGUAGE TEACHING METHODS IS TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) DISADVANTAGES AND ITS SOLUTIONS. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 53–57. Retrieved from
7. Шарофиддинов, М. М. (2016). Из истории железной дороги Бухары. Молодой ученый, (9), 962-964.
8. Vokhobjonovna, K. S. (2023). PECULIARITIES OF PEDAGOGICAL VIEWS IN THE WORKS OF ISHAQ KHAN IBRAT. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 8(11), 156-159.
9. Vokhobzhonovna, X. S. (2023). THE EVOLUTION OF THE CONCEPT OF ACADEMIC FREEDOM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(12), 365-370.
10. Абдухоликова, Н. А. (2022). ЖАМИЯТ АХБОРОТЛАШУВИНИНГ ИЖОБИЙ САЛБИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ. Conferencea, 125-129.
11. Абдурасулова, У. (2020). О‘QUVCHILARDA MORFOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 1).
12. Abdurasulova, U. S. (2019). INNOVATIONAL APPROACH TO IMPROVE MORPHOLOGICAL COMPETENCE. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(7), 266-270.
13. Mamasodikova, M. (2022). THE CATEGORY OF APPRAISAL IN RUSSIAN ROCK POETRY. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(6), 130-133.
14. Мамасодикова, М. Ж. (2024). РУССКАЯ РОК-ПОЭЗИЯ КАК ЛИТЕРАТУРНОЕ И ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ. World of Scientific news in Science, 2(1), 403-412.

15. Абдухоликова, Н. А. (2022). Талаба ёшларнинг онлайн алоқа ҳолатининг салбий жихатлари. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 257-261.
16. Abduxolikova Nasiba Alijonovna. (2023). YOSHLARNING IJTIMOIIY TARMOQLARGA TOBELIGINI OLDINI OLIISH OMLLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(1), 176–184. Retrieved from <https://newjournal.org/index.php/01/article/view/9902>
17. Шарофиддинов, М. М. (2016). Развитие воздушных путей Узбекистана в годы независимости. Молодой ученый, (12), 717-718.
18. Umida Abdurasulova, & Bakoev Navruzjon (2024). TILLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI. Science and innovation, 3 (Special Issue 27), 84-87. doi: 10.5281/zenodo.11079778
19. Bakoev, N. (2024). ONE OF MODERN LANGUAGE TEACHING METHODS IS COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING 'S DISADVANTAGES.«. МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА.
20. Собиров, А. Б. Ў. (2022). Ключевые слова в тексте. Science and Education, 3(12), 1182-1187.